

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI INVESTITSİYALAR JAMG‘ARMASI TO‘G‘RISIDA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatini izchil rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni keng jalb qilish, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda hududlar va tarmoqlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma ushbu jarayonning maqsad va vazifalari, faoliyatni tashkil etish tamoyillari, investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanma investitsiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalar uchun nazariy hamda amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasining " Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida "gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi 4434-son "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 90-sonli " Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 420-sonli "O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiya siyosatini takomillashtirish, jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, investitsion muhitni yanada qulaylashtirish hamda sarmoyadorlar uchun ishonchli huquqiy va institutsional kafolatlarni yaratish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo'nalishda davlat siyosatini izchil rivojlantirish, investitsion loyihalarni tanlash va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, hududlar va tarmoqlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur uslubiy qo'llanma to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar sohasidagi asosiy tamoyillar, ularni jalb etish mexanizmlari hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanma investitsiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalarga mo'ljallangan bo'lib, nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.



Umumiy qoidalar

Ushbu qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- **Jamg'armaning muassisi** — O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi;
- **boshqaruvchi kompaniya** — Jamg'armaning muassisi bilan tuzilgan investitsiya deklaratsiyasini o'z ichiga oluvchi ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq Jamg'armani boshqaruvchi yuridik shaxs;
- **ishonchli boshqarish shartnomasi** — boshqaruvchi kompaniya va Jamg'arma muassisi o'rtasida tuziladigan ishonchli boshqarishda cheklashlarni, taqdirlash va xarajatlarni qoplash tartibini, shartnomaning asoslari va uni to'xtatish shartlarini, tomonlarning javobgarligini va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalarini nazarda tutuvchi shartnoma;
- **investitsiya deklaratsiyasi** — investitsiyalarning maqsadlarini, investitsiya siyosati yo'nalishlarini, boshqaruvchi kompaniyaning investitsiya faoliyatidagi cheklashlarni, deklaratsiyaning amal qilish muddatini va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilanadigan boshqa qoidalarini tavsiflovchi hujjat;
- **alohida bank hisob raqami** — Jamg'armani ishonchli boshqarish jarayonida olingan pul mablag'lari hamda daromadlar hisobi yuritiladigan boshqaruvchi kompaniyaning alohida bank hisob raqami.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish;
- xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;
- investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ'ib qilishga ko'maklashish.



Bilib oling!

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi Jamg'armaning yagona muassisi hisoblanadi hamda investorlar tomonidan Jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng boshqaruvchi kompaniyaning so'rovi bo'yicha Jamg'arma kapitalini shakllantiradi.



Bilib oling!

Jamg'armaning e'lon qilingan kapitali 1 (bir) milliard AQSh dollarini tashkil etadi, u birinchi bosqichda investorlar tomonidan Jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishiga qarab 100 (yuz) million AQSh dollari miqdorda shakllantiriladi.



Jamg'arma faoliyati muddati 15 yilni tashkil etadi, ushbu muddat boshqaruvchi kompaniyaning faoliyati natijalari asosida Jamg'arma muassisi-ning qarori bilan uzaytirilishi mumkin.



Jamg'armaning pul mablag'lari ishonchli boshqarish shartnomasiga asosan boshqaruvchi kompaniyaga ishonchli boshqarish uchun beriladi.



Boshqaruvchi kompaniya Jamg'armaning mol-mulki hisobiga O'zbekiston Respublikasida, shu jumladan, xorijiy shaxslar bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirib, Jamg'armaning ishonchli boshqaruvchisi sifatida ish ko'radi.



Boshqaruvchi kompaniya

Boshqaruvchi kompaniya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.



Bilib oling!

Boshqaruvchi kompaniya aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi boshqaruvchi kompaniyaning yagona aksiyadori hisoblanadi.



Boshqaruvchi kompaniyaning Jamg'armani ishonchli boshqarish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.



Bilib oling!

Boshqaruvchi kompaniyaning aktivlari ustav kapitaliga kiritilgan

- ulushlar,
- boshqaruvchi kompaniya faoliyatidan olinadigan daromadlar,
- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.



Boshqaruvchi kompaniyaning mol-mulki Jamg'arma mol-mulkidan, shuningdek, boshqaruvchi kompaniyada ishonchli boshqaruvdagi boshqa mol-mulkdan alohida bo'ladi.



Mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromadlar Jamg'armaning mulki tarkibiga kiritiladi va Jamg'armaning investitsiya deklaratsiyasiga muvofiq ishlatiladi.



Boshqaruvchi kompaniyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

Quyidagilar boshqaruvchi kompaniyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- mahalliy hamda xorijiy investorlar va moliyaviy institutlar bilan birgalikda foyda keltiradigan investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirish;
- ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, shuningdek, respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish;
- xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;
- investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- investitsiya muhiti yaxshilanishiga ko'maklashish, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini chet elda keng targ'ib qilish.

Yuklangan vazifalarga muvofiq boshqaruvchi kompaniya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- investitsiya kiritish uchun ustuvor yoʻnalishlarni hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini tanlab oladi, moliyaviy qoplashni, tijorat jozibadorligi va ularni amalga oshirish samaradorligini belgilaydi;
- yirik institutsional va strategik xorijiy investorlar bilan hamkorlikni tashkil qiladi;
- xorijiy investorlar bilan birgalikda xavf-xatarni teng taqsimlash prinsipi asosida kapital qaytarilishining zarur darajasini taʼminlaydigan investitsiya loyihalarini izlash, tahlil qilish va baholashni, tizimlashtirish, moliyalashtirishni amalga oshiradi va monitoring olib boradi;

Jamgʻarma va boshqaruvchi kompaniya tomonidan investitsiya faoliyatini olib borish tartibi



Jamgʻarma va boshqaruvchi kompaniya tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibi belgilangan tartibda tuziladigan, investitsiya deklaratsiyasini oʻz ichiga oladigan ishonchli boshqarish shartnomasi bilan belgilanadi.

DIQQAT!

Jamg'arma muassisi va boshqaruvchi kompaniya investitsiya deklaratsiyasini va ishonchli boshqarish qoidalarini qabul qiladi.



Investitsiya loyihalari moliyaviy qoplanishi, tijorat jozibadorligi va samaradorligi inobatga olinib, boshqaruvchi kompaniya tomonidan belgilangan mezonlar asosida mustaqil tanlanadi.

Ushbu jarayonda:

- investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligi;
- loyihalarga ajratiladigan investitsiyalar respublikaning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga va uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga yo'naltirilishi kerak;
- yangi ish o'rinlari yaratish;
ishlab chiqarish rejalashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi;
- bitta loyiha bo'yicha Jamg'arma investitsiyalarining cheklangan miqdori ushbu loyihaga mo'ljallanayotgan

investitsiyalar umumiy hajmining ko'pi bilan 30 foizini tashkil etadi. Bunda Jamg'arma xo'jalik yurituvchi subyekt ustav fondi (kapitalining) 30 foizidan ortiq bo'lgan ulush iqtisodiyotning bir tarmog'i bo'yicha Jamg'arma investitsiyalarining cheklangan miqdori Jamg'arma umumiy miqdorining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak;

- xorijiy va mahalliy birgalikda investitsiya kirituvchilar investitsiya loyihasida loyiha qiymatining kamida 70 foizi hajmida ishtirok etishning o'z moliyaviy va boshqa imkoniyatlarini tasdiqlaydilar.



Bu muhim!

Loyihaga mablag'larni investitsiyalash to'g'risidagi bitim boshqaruvchi kompaniyaning boshqaruv organlari tomonidan ma'qullangandan keyin boshqaruvchi kompaniya 2 ish kuni mobaynida boshqaruvchi kompaniyaning boshqaruv organlari qarorlari nusxalarini taqdim qilgan holda Jamg'arma muassisiga Jamg'armani to'ldirishga so'rov yuboradi.

So'rovga muvofiq Jamg'arma muassisi 5 ish kuni mobaynida tegishli investitsiya loyihasiga investitsiya kiritish uchun Jamg'armani to'ldirishga mablag'larni boshqaruvchi kompaniyaning alohida bank hisob raqamiga o'tkazadi.

DIQQAT!

Boshqaruvchi kompaniya uning alohida bank hisob raqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan keyin 2 ish kuni mobaynida Jamg'armaning muassisiga investitsiya paylarini taqdim etadi.

Boshqaruvchi kompaniya Jamg'armaning muassisiga boshqaruvchi kompaniyaning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan shakllar bo'yicha Jamg'arma mol-mulki tarkibiga kiradigan pul mablag'lari sarflanishi, shuningdek, Jamg'arma mol-mulkini boshqarishdan olingan daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etadi.

Boshqaruvchi kompaniya O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari buzilganligi uchun Jamg'arma muassisi oldida javob beradi.

Ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq boshqaruvchi kompaniya tomonidan xizmatlar ko'rsatilganligi uchun Jamg'arma mablag'lari hisobiga taqdirlash puli to'lanadi.

DIQQAT!

To'lanadigan haqning umumiy miqdori va xususiyatlari ishonchli boshqarish shartnomasi bilan belgilanadi.

Boshqaruvchi kompaniyaning hisobot yili kalendar yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha (31-yanvar ham kiradi) belgilanadi.



Yakunlovchi qoida

47. Jamg'armani va boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi to'g'risida uslubiy qo'llanma

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.